

MALAKA OSHIRISH

TO‘G‘RISIDA SHARTNOMA № 006700-son

Toshkent sh.

2022 yil 27 yanvar

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 iyundagi 531-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi Ustaviga muvofiq direktor o‘rinbosari K.Islamov (bundan buyon matnda “Markaz” deb ataladi) bir tomonidan va O‘zbekiston Respublikasi Kurrupsiyaga qarshi kurashish agentligi nomidan Kajuep asosida faoliyat yurituvchi tashkilot rahbari A.E.Burxanov (bundan buyon matnda “Buyurtmachi” deb ataladi) ikkinchi tomonidan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

1.1. Markaz O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 22-noyabrdagi 244-son qarori bilan tasdiqlangan “Yuridik xizmatlar xodimlarini attestatsiyadan o’tkazish va ularning malakasini oshirish tartibi to’g‘risida”gi nizom hamda shartnomada nazarda tutilgan tartibda va shartlarda malaka oshirish kurslarini sifatli tashkil etishni, Buyurtmachi esa malaka oshirish bilan bog’liq xarajatlarni to’lashni o’z zimmasiga oladi.

1.2. Malaka oshirish kurslarida o’quv mashg’ulotlari Markaz tomonidan tasdiqlanadigan 72 akademik soatdan iborat o’quv dasturlari asosida olib boriladi.

2. Malaka oshirish uchun belgilangan to’lov va hisob-kitob tartibi

2.1. O’quv kursi bo’yicha belgilangan to’lov bir kishi uchun qo’shimcha qiymat solig’isiz 1350000 so’mni tashkil etadi.

2.2. Buyurtmachi tomonidan 1 nafr xodim uchun 1350000.0 so’m o’tkaziladi.

2.3. Buyurtmachi oldindan shartnoma qiymatining 30 foiz to’lovini shartnoma imzolangandan so’ng O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G’aznachiligidan ro’yxatdan o’tganidan keyin o’n bank ish kuni mobaynida Markazning hisob-raqamiga o’tkazib beradi.

2.4. Buyurtmachi shartnoma qiymatining qolgan 70 foiz to’lovini Markaz tomonidan taqdim etilgan hisob fakturaga asosan, besh bank ish kuni davomida amalga oshiradi.

2.4. Buyurtmachi shartnomaning ikkinchi nusxasini malaka oshirish o’quv kursi boshlangan vaqtida elektron dasturga biriktirilishini ta’minlaydi.

2.6. Malaka oshirish kurslarining aniq vaqtini malaka oshirish kurslarini tashkil etishga mas’ul tashkilot bilan kelishilgan holda belgilanadi.

3. Markazning huquq va majburiyatlari

3.1. Markaz quyidagi majburiyatlarni o’z zimmasiga oladi:

malaka oshirish jarayonini sifatli tashkil qilishni ta’minlash;

mashg’ulotlarni soha bo’yicha yuqori malakaga ega bo’lgan professor-o’qituvchi va amaliyotchi mutaxassislar tomonidan o’tkazilishini ta’minlash;

tinglovchilarni o'quv materiallari, texnik vositalar, kompyuter texnikalari va kutubxonadan foydalishini ta'minlash;

malaka oshirish kurslari yakuni bo'yicha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan tinglovchilarga belgilangan namunadagi sertifikat berish.

Markaz tomonidan malaka oshirish kursi bitiruvchilariga elektron sertifikatlar noyob identifikatsiya raqami va QR-kod hamda himoya elementlarini nazarda tutuvchi "Elektron sertifikatlar repozitoriyi" tizimi orqali taqdim etiladi.

4. Buyurtmachining majburiyati

4.1. Buyurtmachi quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

malaka oshirish uchun belgilangan to'lovni o'z vaqtida amalga oshirish;

malaka oshirish kurslari bevosita Markazda tashkil etilgan hollarda tinglovchilarni belgilangan muddatda Markazga yetib kelishi va mashg'ulotlarda to'liq qatnashishlarini ta'minlash (qatnashish);

malaka oshirish kurslari onlayn shaklda tashkil etilganda tinglovchilarni onlayn o'quv mashg'ulotlarida bevosita ishtirok etishini ta'minlash (bevosita ishtirok etish);

malaka oshirish kurslari masofaviy offlayn shaklida tashkil etilganda tinglovchilarni Markaz masofaviy ta'llim platformasiga joylashtirilgan elektron o'quv-kontentlarini to'liq o'zlashtirishini ta'minlash (o'zlashtirish);

buyurtmachi belgilangan muddatlarda tinglovchilarni malaka oshirishga yubormagan hollarda, tinglovchilar joriy o'quv yilining keyingi oyida o'qitiladi.

5. Tomonlarning javobgarligi

5.1. Ushbu shartnomalarini bajarmaslik yoki lozim bo'lgan darajada bajarmaslik tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikni yuzaga keltiradi.

5.2. Shartnomalar yuzasidan vujudga keladigan har qanday nizoli masalalar tomonlar o'rtaida muzokara yo'li bilan hal qilinadi. Kelishuvga erishilmagan hollarda nizo sud tartibida hal etiladi.

5.3. Ushbu shartnomani bajarishda tomonlar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni va boshqa

normativ-huquqiy hujjatlarga amal qiladilar.

6. Shartnomaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish tartibi hamda bekor qilish

6.1. Ushbu shartnomaga kiritilgan har qanday o'zgartirish yoki qo'shimchalar yozma ravishda rasmiylashtirilib, har ikki tomon imzolagandan so'ng kuchga kiradi.

6.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish tomonlarning kelishuvi bo'yicha yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarda va tartibda amalga oshiriladi.

6.3. Shartnomaga quyidagi hollarda Markaz tomonidan bir tomonlama bekor qilinishi mumkin:

tinglovchi Markaz Ustaviga hamda “O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazida qayta tayyorlash va malaka oshirish tartibi to’g’risida”gi nizomga muvofiq tinglovchilar safidan chiqarilganda;

malaka oshirish uchun belgilangan to’lov to’liq va o’z vaqtida amalga oshirilmaganda;

6.4. Shartnomani bekor qilishga qaror qilgan taraf boshqa tarafga bu haqda yozma xabarnoma yuboradi.

7. Fors major holatlari

7.1. Taraflar ixtiyoriga bog’liq bo’limgan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo’limgan holatlar (yengib bo’lmas kuch) oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun taraflarning birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar bo’lmaydi. Vakolatli organ tomonidan berilgan maxsus hujjat yengib bo’lmas kuch mavjudligi va amal qilishining davomiyligini tasdiqlash uchun yetarli hujjatdir.

7.2. O’z majburiyatlarini bajara olmayotgan taraf yengib bo’lmas kuchning mavjudligi va uning shartnomaga bo’yicha majburiyatlarni bajarishga ta’siri haqida ikkinchi tarafga xabarnoma berishi lozim. Agar yengib bo’lmas kuch uzlusiz amal qilib tursa va yaqin muddat ichida bekor qilinishi ehtimoli bo’lmasa, mazkur shartnomaga taraflardan birining tashabbusi bilan ikkinchi tarafga yozma bildirishnoma yuborish yo’li bilan bekor qilinishi mumkin.

8. Boshqa shartlar

8.1. Buyurtmachi o’quv dasturlarini ishlab chiqish va malaka oshirish kurslariga mutaxassislarini jaib qilish yuzasidan Markazga takliflar kiritishi mumkin.

8.2. Tinglovchi uzsiz sabablarga ko’ra mashg’ulotlarda qatnashmagan yoki administrator tomonidan berilgan elektron login va parol orqali masofaviy ta’lim platformasida o’quv kursini boshlagan yoxud uzsiz sabablarga ko’ra (mehnat shartnomasi bekor qilingan, boshqa ishga o’tgan) belgilangan o’qish muddati davomida o’quv kursi modullarini (ma’ruza, videooma’ruza, taqdimot slaydlari, glossariy) yakunlamagan, shuningdek belgilangan tartibda Markaz tinglovchilari safidan chiqarilgan hollarda, Markaz hisob raqamiga o’tkazilgan to’lov summasi Buyurtmachiga qaytarilmaydi.

8.3. Markaz masofaviy ta’lim platformasiga joylashtirilgan elektron o’quv-kontentlarini uzrli sabablarga ko’ra o’zlashtirmagan tinglovchilar yakuniy sinov imtihoniga qo’yilmaydi va bunday holda tinglovchi keyingi guruhsiz bilan birga o’quv kursi bo’yicha elektron o’quv-kontentlarini to’liq o’zlashtirganidan so’ng yakuniy sinov imtihonini topshirishga ruxsat beriladi.

8.4. Yakuniy sinov imtihonidan (suhbat) o’ta olmagan tinglovchi Markaz tomonidan belgilangan muddatda qayta sinov imtihonini topshiradi. Qayta o’tkazilgan sinov imtihonidan o’tmagan tinglovchi Buyurtmachi tomonidan tegishli to’lov amalga oshirilganidan keyin, navbatdagi guruh mashg’ulotlarida qaytadan malaka oshirish kursidan o’tadi.

8.5. Uzrli sabab bilan malaka oshirish kursini yakuniga yetkaza olmagan tinglovchi taraflar kelishuviga binoan navbatdagi guruh bilan birgalikda malaka oshirish kursini yakunlashi mumkin.

8.6. Yakuniy sinov imtihonida uzrli sabablarga ko’ra qatnasha olmagan tinglovchi navbatdagi guruh tinglovchilari bilan birgalikda malaka oshirish kursini yakunlashi mumkin.

8.7. Malaka oshirish kurslarida o'quv jarayoni, qoidaga ko'ra, 25 nafardan ortiq bo'lмаган tinglovchilardan iborat akademik guruhlarda tashkil qilinadi.

8.8. Tegishli axborot-metodik va tashkiliy-texnik baza mavjud bo'lgan taqdirda malaka oshirish o'quv kurslari masofadan o'qitish usullari qo'llanilgan holda onlayn yoki offlays shaklida tashkil etiladi.

8.9. Markaz tinglovchilarni turar-joy bilan ta'minlash majburiyatini olmaydi.

8.10. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan barcha shartlar amaldagi qonun hujjatlari asosida tartibga solinadi.

9. Alohidashartlar

9.1. Tomonlarning har biri mazkur shartnama shartnama bo'yicha korrupsiyaga qarshi kurash siyosatini olib borishni tan oladilar va tasdiqlaydilar. Barcha korrupsiyaviy hatti-harakatlarda qatnashmaslik, jumladan pul mablag'lari yoki boshqa ko'rinishda pora taklif qilmaslik, va'da bermaslik, shuningdek o'z vakolatlarini suiiste'mol qilmaslik kabi talablarga amala qilishlari shart.

9.2. Mazkur shartnama tomonlar imzolagan kundan kuchga kiradi va 2022-yil 31-dekabr qadar amal qiladi.

9.3. Mazkur shartnama ikki nusxada tuzilgan va bir xil yuridik kuchga ega.

TOMONLARNING REKVIZITLARI:

O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi

Moliya vazirligi G'aznachiligi

h/r 23402000300100001010

XKKM MB BB Toshkent sh.

MFO 00014

INN-201122919

sh/r. 400110860262697096200009001

INN 201991922 ОКЭД-85590

100052, Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek
tumani, Katta Darxon ko'chasi, 6 uy


Te.a. (71) 234-53-46

Markaz direktori o'rinnbosari

K.Islamov

Кенжеке

J.Jo'ravev



Мурод Радиев

Мурод Радиев
D.Raxmatov

Buyurtmachi

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga

qarshi kurashish agentligi

Yakkasaroy tumani

Sh.Rustaveli

8a-uy

Markaziy Bank XKKM

23402000300100001010

400110860262877039940331001

00014

A.E.Burxanov



| | |
|---|-------------------|
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH AGENTLIGI | |
| YURISKONSULT | |
| XULOSASI № 20 | |
| IMZO: | <u>Д.Рахматов</u> |
| «27» yanvar 2022 y. | |